

**YOSHLAR TARBIYASIDA MA'NAViy-MA'RIFIY TADBIRLARNING
O'RNI**

Nilufar Niyozova

Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, f.f.n.

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nilufar.niyozova@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida barcha omillar qatori respublikamizda olib borilayotgan islohotlar hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni alohida ko'rsatilgan.

Abstract: This article shows the role of ongoing reforms and spiritual and educational activities in our republic, along with all other factors, in the education of youth.

Аннотация: В данной статье показана роль проводимых реформ и духовно-просветительской деятельности в нашей республике, наряду со всеми другими факторами, в воспитании молодежи.

Kalit so'zlar: yoshlar, ma'naviyat, ma'rifat, tadbir, islohot, inson qadri, sog'lom avlod, kelajak, davlat dasturi, yutuq.

Keywords: youth, spirituality, education, events, reform, human values, healthy generation, future, state program, achievement.

Ключевые слова: молодежь, духовность, просвещение, мероприятия, реформа, человеческие ценности, здоровое поколение, будущее, государственная программа, достижение.

So‘nggi yillarda respublikamizda olib borilayotgang keng ko‘lamli islohotlarning asosiy negizlaridan biri - bu ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘lib, bunda aholimiz, ayniqsa yosh avlodning har tomonlama yetuk va barkamol inson bo‘lib yetishishini ta'minlashdan iborat. Albatta, kelajagimiz poydevori bo‘lgan bugungi davr yoshlarining har tomonlama bilimli, kasbiy mahorati yuksak, intellektual salohiyati yuqori bo‘lishida barcha sohalar qatori barobarida ta'lim muassasalari o‘ziga xos ahamiyat ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizdagi bugungi kungacha juda ko‘plab ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘tgan yillar davomida amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz va ularning samarasini sarhisob qilar ekanmiz, bu borada o‘zimizga xos yutuq va imkoniyatlarni qo‘lga kiritdik deyishga asoslarimiz bor. Albatta, shu o‘rinda ta'kidlash joizki, hali ko‘plab bunday tadbirlarni amalga oshirishda qilinadigan ishlarimiz va maqsadlarimiz borligi diqqatimiz markazida bo‘ladi. Bunday ishlarni o‘tkazish va amalga tatbiq etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, talaba-yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, erkin fikr va dunyoqarashga ega bo‘lish tamoyillarini rivojlantirish, ularning siyosiy ongi va yuksak ma'naviyatini mukammal darajaga yetkazishdan iborat. Shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida ularni har qanday mafkuraviy tahdidlardan xalos qilish, “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma'rifat” tamoyili asosida tafakkurida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, bo‘layotgan voqea-hodisalarga erkin fikr bildira oladigan, kerak bo‘lsa tahlil qila oladigan darajada ulg‘aytirishga erishishdir. Zero, “Biz farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo‘lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga,

dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin” [1].

Demokratiya va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jahon davlatlarining tajribasidan foydalangan holda keyingi yillarda barcha sohalarda ko‘plab demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. “Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta‘minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi barchamizga ayon” [2]. Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan demokratiq islohotlarning ma‘no-mazmunini to‘la tushunib yetish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga murojaatnomasi mazmuni o‘quv yilida barcha guruhlariga tushuntirib borilishi samarasi o‘laroq, nafaqat talaba-yoshlarimizning, balki professor-o‘qituvchilarimiz demokratik ongi va madaniyati yuksalishini ta‘minlab bermoqda. Shuningdek, huqumat tomonidan chiqarilayotgan qonuniy-huquqiy hujjatlarning o‘rganilishi ham siyosiy madaniyatning takomiliga hizmat qilmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida jahonning siyosiy va mafkuraviy manzarasida turli qarama-qarshiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Bu kuchlar o‘z dunyoqarashi orqali inson qalbi va ongini egallashga harakat qilmoqda. Biroq bu vaziyatda O‘zbekiston faqat tinchlik tarafdori ekanligini va jahon davlatlarini tinchlikka da‘vat etgan holda o‘z pozitsiyasida qat‘iy turmoqda. Albatta, xavfsizlikni ta‘minlashda inson omilining nechog‘li muhim o‘rin egallashini talaba yoshlarga yetkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqi bo‘yicha davra suhbatlari o‘tkazilishi yoshlarimiz tafakkurida “inson omili” tushunchasi mazmun-mohiyatining to‘la shakllanishiga zamin yaratdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xalqimizning barcha mushtarak maqsadlarini bilashtirib turgan milliy istiqlol g'oyasini o'rganish va yoshlar ongiga singdirish davlatimiz siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Darhaqiqat, "Farzandlarimizning turli radikal va zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik – asosiy vazifamizdir. Bu boradagi ishlarni yangicha yondashuvlar bilan davom ettirishimiz kerak" [3].

Inson qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan bir paytda nafaqat bizning mamlakatimizda, balki jahon miqyosida milliy g'oyani shakllantirish va rivojlantirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki milliy g'oyada barpo etayotgan davlat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari, undagi barcha ijtimoiy munosabatlar xarakteri, bugungi va istiqboldagi taraqqiyotimiz mohiyati to'g'risidagi bilimlar mujassamlashgan. Shu nuqtai nazardan g'oyaviy-mafkuraviy muammolarga oid tadqiqot, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarida ayni shu masalalar keng yoritilishi, odamlarda, ayniqsa yoshlar tafakkurida mamlakatimiz oldida turgan eng muhim maqsad va vazifalar to'g'risida aniq – ravshan bilim-tasavvurlar hosil qilinishi zarur. Shularni hisobga olgan holda oliy o'quv yurtlarida milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qiluvchi bir qancha tadbirlar amalga oshirilishi talaba-yoshlar ongida mafkuraviy immunitetning paydo bo'lishi, milliy istiqlol g'oyasini to'liq anglab yetishiga ko'mak beradi. Bularga misol tariqasida haftaning har juma kuni o'tkazilgan "Ma'naviyat soati"ni, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlati siyosati asoslari to'g'risida", "Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", "Odam savdosiga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qator farmon va qarorlar barcha oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va talabalari o'rtasida keng o'rganilganligini, bu borada tadbirlar rejasi ishlab chiqilganligini, bir necha marotaba huquq-tartibot organlari xodimlari, siyosatchi olimlar bilan davra suhbatlari o'tkazilganligini keltirish mumkin.

An'anaviy tarzda o'tkaziladigan "Kitobxonlar bayrami" kunida "Kitob eng yaxshi do'st" mavzusidagi tadbir yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab quvvatlash va Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ijrosini ta'minlash maqsadini, yoshlarimizning kitobga bo'lgan mehrini ifoda etib berdi.

Mamlakat rahbari tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning amaliy ifodasi sifatida har yili respublikamiz oliy o'quv yurtlarida "Talaba bahori" ko'rik tanlovi o'tkazilib, bu tanlov aynan Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab quvvatlash, talaba-yoshlarning iqtidorini namoyon etish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Sog'lom turmush tarzi haqida fikr yurtganda uni faqatgina jismoniy komillik nuqtai nazaridan tushunish emas, balki uni bugungi davrda turli zararli illatlar va global jinoyatchilik hamda uning oldini olish choralari mavzusiga bog'lab o'rganish yoshlarimiz ongida bu falsafani to'laroq shakllantirishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, hozirda yoshlarimizning sog'lom muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan odam savdosiga qarshi kurashish mavzusidagi tadbirlar ham oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga imkon qadar tezroq erishish imkoniyatini kashf etmoqda. Ko'plab tadbirlar qatorida "Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!" mavzusida yirik seminarlar, davra suhbatlari tashkil etilayotganligi sog'lom avlod tarbiyasi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi muhim yo'nalishlarning birini ko'rsatib berdi deyishimiz mumkin.

Joriy yil muhtaram Prezidentimiz tomonidan "Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash" yili deb e'lon qilindi. Darhaqiqat, kelajak avlodga e'tibor, ularning jismoniy hamda ma'naviy ulg'ayishini ta'minlash respublikamizda olib borilayotgan siyosatning ro'yobidir. Negaki, yoshlar bugungi farovon kunimiz bunyodkori, ta'lim-tarbiyamiz manbai, istiqbolimiz charog'onligini ta'minlovchilardir. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi kelgusi yillarda ham barcha ma'naviy-ma'rifiy

tadbirlarni takomillashtirgan holda, yoshlarimizni kattalarga hurmat, ajdodlar xotirasiga ehtirom, munosib vorislik ruhida tarbiyalaydigan tadbirlar ko‘lamini kengaytirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur.

Adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.:O‘zbekiston, 2021.28 – bet
- 2.Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti o‘rug‘ va kelajagi farovon bo‘ladt. 3 jild. T.: O‘zbekiston, 2019. 34-bet.